

“YURISPREDENSIYA” YO‘NALISHIGA KIRISH QOIDALARI QAT‘IYLASHDI: IMTIYOZLAR QISQARTIRILDI

Yuldashev Axmad Abdullox xoji o'g'li

*Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik
fakulteti 1-bosqich talabasi e-mail: Yuldashev571@gmail.com*

Annotatsiya: So‘nggi yillarda O‘zbekistonda yuridik ta‘lim sifatini oshirish, sohaga malakali kadrlar tayyorlash va adolatli raqobat muhitini shakllantirishga qaratilgan islohotlar izchil davom etmoqda. Shu jarayonning navbatdagi muhim bosqichi sifatida 2026-yil 1-martdan boshlab “Yurisprudentsiya” ta‘lim yo‘nalishiga o‘qishga kirish tartiblarida yangi qoidalar joriy etilishi belgilandi. Mazkur o‘zgarishlarning eng asosiy jihati — abituriyentlarga beriladigan ayrim imtiyozlarning qisqartirilishi va tanlov tizimining qat‘iylashtirilganidir.

Kalit so‘zlar: *Imtiyoz, yuridik soha, farmon, sertifikat, ta‘lim sifati, huquq, abituriyent*

RULES OF ENTRY INTO THE " JURISPRUDENCE " DIRECTION WERE TIGHTENED: PRIVILEGES WERE REDUCED

Annotation: *In recent years, reforms aimed at improving the quality of legal education in Uzbekistan, training qualified personnel in the field and the formation of a fair competitive environment have been consistently underway. As the next important stage of this process, from March 1, 2026, it was established that new rules will be introduced in the procedures for admission to the educational direction “jurisprudence”. The most fundamental aspect of these changes is the reduction of certain benefits granted to applicants and the tightening of the selection system.*

Keywords: *Privilege, legal field, decree, certificate, quality of education, law, applicants*

УЖЕСТОЧЕНЫ ПРАВИЛА ПОСТУПЛЕНИЯ НА НАПРАВЛЕНИЕ” ЮРИСПРУДЕНЦИЯ”: СОКРАЩЕНЫ ЛЬГОТЫ

Аннотация: *В последние годы в Узбекистане последовательно проводятся реформы, направленные на повышение качества юридического образования, подготовку квалифицированных кадров для отрасли и формирование атмосферы справедливой конкуренции. Следующим важным этапом этого процесса стало введение с 1 марта 2026 года новых правил в процедурах поступления на образовательное направление “Юриспруденция”. Основным аспектом этих изменений является сокращение некоторых льгот, предоставляемых абитуриентам, и ужесточение системы отбора.*

Ключевые слова: *привилегия, юридическая сфера, постановление, сертификат, качество образования, право, соискатели*

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, bu imtiyozlar qisqarishdan ko'zlangan maqsad - yuridik ta'lim tizimini tubdan takomilashtirish shuningdek kelajakda oliy ma'lumotli kasbiga qiziqan kadrlarni tayyorlashni o'z maqsadi qilib oldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Shuningdek subyektiv yondashuvlarni ham bartaraf etishdir. Bugungi kunga kelib yoshlar o'rtasida huquqqa bo'lgan qiziqish kundan- kunga rivojlanib bormoqda. Kimlardir o'z xohishiga ko'ra o'qiyotgan bo'lsa kimlardir ota onasi, qarindoshlari qiziqishi uchun o'qimoqda. Davlat boshlig'i yoshlarmiz uchun juda keng doirada imtiyozlar yaratib bermoqda, o'qishga kirishdagi qulayliklar oliy ta'lim turlarining Nodavlat hamda Davlat ta'lim tashkilotlari faoliyat yuritmoqda. Bu imkoniyatlarni yaratishdan maqsad, o'sib kelayotgan yoshlarni bilim olishga yunaltirish desak maqsadga muvofiq bo'ladi. Prezident farmoniga asosan yuridik ta'lim samaradorligi va sifat ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida 2026-yil 1-martdan boshlab - abituriyentlarni "Yurisprudentsiya" ta'lim yo'nalishlariga o'qishga qabul qilishda. O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlar, harbiylar, ichki ishlar organlari xodimlari, fan olimpiadalari g'oliblari, ijtimoy himoyaga muhtoj shaxslarga tatbiq etadigan imtiyozlardan tashqari "Yurisprudentsiya" ta'lim yunalishga aloqador bo'lmagan oliy ta'lim tashkilotlariga kirishdagi qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlar tatbiq etilishi to'xtatilinadi. Yangi islohatlar esa barcha uchun barobar baholash mezonini joriy etib, imtiyozlar sonini sezilarli darajada qisqartiradi. Natijada kirish jarayoni ya'nada shafoflashadi. Endilikda barcha abiturientlar bir xil huquq asosida o'qishga kirishi ta'minladi. Demak endilikda "Yurisprudentsiya" yo'nalishga aloqador bo'lmagan OTM larga kirishda tatbiq etiladigan imtiyozlar ega abutrientlar ("Zulfiya" "Mard o'g'lon" mukofotlari sovrindorlari) Yuridik yo'nalishda o'qish uchun imtiyoz ololmaydi.

Bu farmon qanchalik yuridik sohaga kirishi uchun adolatli bo'ldi? Endilikda abutrientlar bilimlari orqali o'qishga kirishi va ta'lim sifatini oshirish shuningdek ortiqcha imtiyozlarsiz talaba bo'lishi imkoniyatini yaratib beradi desak maqsadga muvofiq bo'ladi. Avvalo davlat boshqaruv organlariga ishga kirishdagi talablarga javob beradigan kadrlarni tayyorlash va yuridik oliy ta'lim tashkilotiga o'qishga kirish maqsadida tayyorlanib kelayotgan abutrientlarni jiddiy tayyorlanishi kerak ekanligini, shuningdek imtiyozi borlar ham bir xil test topshirib talaba bo'lishi mumkin. Bu borada abutrientlar uchun ham yengilik bo'ladi deb ham ayta olamiz ya'ni huquq fanida sertifikat joriy etish to'g'risida Prezident 232-sonli farmoni ichida aytib o'tilgandek 2026-yil 1-martdan boshlab sertifikat joriy etilsin to'g'risida farmon chiqarildi. Huquq fanidan sertifikat chiqishi bu yaxshimi yo yomonmi degan savol to'g'rilishi mumkin, albatta. Bu farmonda huquq sohasiga katta yangilik bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Abutrientlar muddatida oldin yetali balni olib talaba bo'lish imkonini qo'lga kiritadi. Bugungi kunga kelib, aholi o'rtasida huquqiy ong va huquqiy

madaniyatini rivojlantirish shuningdek aholi o'rtasida huquqiy targ'ibot ishlarni amalga oshirish uchun davlat keng imkoniyatlar yaratib bermoqda. Yoshlarimizni ta'lim olishga bo'lgan e'tibori va xarakati taxsinga loyiq. Bugungi kunda ko'rib turganimizdek muddatidan oldin talaba bo'lgan abuturiyentlar soni kundan- kunga ortib bormoqda. Muddatidan oldin kerakli fanlardan sertifikat olib maksimal ballni to'plab qo'ymoqda. Endilikda mana shunday imkoniyatlar yuridik ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirmoqchi bo'lgan talabgorlarga ham shunday imkoniyatlar yaratilib berildi. Avvalo talabgorlardan kerakli dastur davomida tavsiya etilgan kitoblarni o'qib chiqishi hamda tayyorlanishi kerak. Yuridik ta'lim- qonun, adolat va tartibni ta'minlash uchun xizmat qiladigan eng muhimi sohalardan biridir. Bu yunalishda o'qigan shaxslar jamiyatda katta mas'uliyatga ega bo'ladigan, professional va nufuzli kasblarni egallashadi.

Yuridik ta'lim – jamiyatda yuzga keladigan huquqiy munosabatlarni tartibga solish, qonunlarni qo'llash, insonlar huquqlarini himoya qilish hamda adolatni ta'minlashga qodir mutaxassislarni tayyorlaydigan ta'lim yo'nalishidir. Avvalo, yuridik ta'lim egalarining ish o'rinlari juda keng. Bitiruvchilar prokuratura, sud, ichki ishlar organlari, adliya tizimi, advokatlik va notariat kabi davlat muassasalarida faoliyat yuritishlari mumkin. Shuningdek, xususiy kompaniyalar, banklar, xalqaro tashkilotlar va korporativ yuridik xizmatlar ham huquqshunoslarga katta talab qo'ymoqda. Mazkur soha barqaror va nufuzli kasb sanaladi.

Yuristlar jamiyatda yuqori mas'uliyatga ega bo'lgan, qarorlari va fikrlari e'tiborga olinadigan shaxslar sifatida tan olinadi. Bu esa kasb egalariga doimiy hurmat va e'tibor ta'minlaydi.

Yuridik ta'lim inson huquqlarini himoya qilish, adolatni tiklash va jamiyatda tartibni ta'minlashga xizmat qiladi. Bu kasb nafaqat moddiy, balki ma'naviy jihatdan ham ahamiyatli bo'lib, ko'plab insonlarning taqdiriga ijobiy ta'sir o'tkazish imkonini beradi. Yuridik ta'lim bugungi kunda nafaqat nufuzli va istiqbolli yo'nalish, balki jamiyat taraqqiyoti uchun muhim omillardan biridir.

Malakali yuristlarning yetishib chiqishi adolat, qonun ustuvorligi va huquqiy targ'ibotning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Bu soha abituriyentlarga keng kasbiy imkoniyatlar, barqaror ish o'rni, jamiyatda hurmat-e'tibor va shaxsiy rivojlanish uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Demak, yuridik ta'limni tanlash — kelajakda mas'uliyatli, sermazmun va obro'li faoliyatga yo'l ochadigan eng to'g'ri qarorlardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va ilm-fanni yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida <https://www.lex.uz/uz/docs/-7864099>

2. Ta'lim to'g'risidagi qonun.

3.Otimiga kirish Imtihonlari to'g'risdagi maxsus dastur
<https://oliygoh.uz/post/otmga-kirishda-imtiyozlar>
4.Talim -tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora
tadbirlar to'g'risida Prezident farmoni dastur <https://lex.uz/acts/-5085887>